

**TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBALAR, ULARNING
MAMLAKATIMIZGA OLIB KIRILISHI VA ISTIQBOLLARI****Jumaboyeva Umida Hamza qizi**

Abdulla Avloniy nomidagi pedagogika mahorat milliy instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18790361>

Annotatsiya. Mazkur ishda jahon tajribasida ta'lim sifatini baholashning bir necha asosiy modellari va ularning xususiyatlari, hamda ular ta'lim muassasalarining hisobdorligi va o'quv samaradorligini oshirishga qo'shadigan xissasi ulardan foydalanish usullari va ta'lim jarayoniga joriy etishdagi bir necha bosqichlari ko'rib o'tiladi. Shuningdek xalqaro baholash tizimlarini mamlakatimizga olib kirish orqali xalqaro tan olinishni ta'minlash, raqobatbardosh kadrlar siyosatini olib boorish, ta'limni bozor talabiga moslashtirish, istiqbolda milliy reytinglarni xalqaro standartlar bilan integratsiyalash orqali ko'zlangan natijalarga erishish yo'lidagi say-harakatlar shu bilan birga ta'lim sifatini baholash xalqaro tajribalarining ta'limga qo'shayotgan xissasini ko'rib o'tishimiz va ulardan keladigan natijalarni ko'rsatib o'tish bilan ahamyatlidir.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash reytingi, PISA, integratsiyalashuv jarayoni, raqobatbardosh kadrlar, PIRLS, ta'lim samaradorligi, xalqaro tajribalar, TIMSS, xalqaro standartlar, bozor talabi.

Abstract. This paper examines several key models of educational quality assessment used in international practice, their distinctive features, and their contribution to enhancing institutional accountability and learning effectiveness. It also analyzes the methods of applying these models and the stages involved in their implementation within the educational process.

Furthermore, the study highlights efforts to ensure international recognition by introducing global assessment systems into the national context, to pursue a competitive human capital policy, and to align education with market demands. Special attention is given to achieving targeted outcomes through the integration of national rating systems with international standards. Overall, the research is significant in that it reviews the contributions of international practices in educational quality assessment and demonstrates the results derived from their application.

Keywords: international assessment rankings, PISA, integration process, competitive workforce, PIRLS, educational effectiveness, international practices, TIMSS, international standards, market demand.

Аннотация. В данной работе рассматриваются основные модели оценки качества образования, применяемые в мировой практике, их особенности, а также вклад в повышение подотчётности образовательных учреждений и эффективности учебного процесса. Анализируются способы использования данных моделей и этапы их внедрения в образовательную деятельность. Кроме того, освещаются меры по обеспечению международного признания за счёт внедрения международных систем оценки, формированию конкурентоспособной кадровой политики и адаптации образования к требованиям рынка труда. Особое внимание уделяется достижению намеченных результатов посредством интеграции национальных рейтингов с международными стандартами. Значимость исследования заключается в анализе вклада международного опыта оценки качества образования и демонстрации результатов его применения в образовательной практике.

Ключевые слова: международные рейтинги оценки, PISA, процессы интеграции, конкурентоспособные кадры, PIRLS, эффективность образования, международный опыт, TIMSS, международные стандарты, требования рынка труда.

KIRISH

O'z o'rnida eng muhim narsani ta'kidlab o'tish kerakki uzluksiz ta'limning poydevori hisoblangan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilariga eng zamonaviy va qulay sharoitlarni yaratib berish maqsadida "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Uning asosiy tamoiil va maqsadlaridan biri- maktablarni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash (birinchi navbatda qishloq joylaridagi maktablarni), ular tarkibi va sifatini oshirish, shuningdek o'qtuvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish, hamda o'z navbatida ularni rag'batlantirishni kuchaytirish bo'ldi [1]. Hozirgi globallashtirish sharoitida har bir sohada o'sish o'zgarish kuzatilganidek, ta'lim sohasida hambir necha innovatsiyalar, yangiliklar kuzatilmoqda bunda esa ta'lim sohasidagi o'qtuvchi va o'quvchilarning o'zni juda muhimdir.

Ta'lim jarayonining qay darajada ekanligi hamda kadrlarning monitoring va reytinglari hozirgi zamon talab etayotgan xalqaro baholash standartlariga bog'liq desak adashmagan bo'lamiz. Mamlakatimizda esa bir qancha yoshlarga oid islohatlar olib borilmoqda. Bularning barchasi yoshlarimizning kelgusida jahon bozorida o'zlarining o'rnini topishlarida hamda raqobatbardoshliklari orqali ta'lim sohasida yuksak yutuq va marralarga erishishlari uchundir.

Hamda yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport axborot texnologiyalari va kitob o'qishlarini har tomonlama qo'llab quvvatlashga qaratilgan "Besh muhim tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda [2].

ASOSIY QISM

PIRLS - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matinni o'qish va tushunish darajasini baholanadi.

PISA - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy-fanlardagi savodxonliklari baholanadi.

TIMSS - 4 va 8 - sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligi baholanadi

Hozirgi paytda davlatimiz tomonidan ushbu baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan bir qator ishlar olib borilmoqda hamda ustuvor maqsadlar qo'yilmoqda masalan "PISA" (The Programme for International Student Assessment) baholash standartini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tuzilib unga ko'ra O'zbekiston o'quvchilarni baholash xalqaro standartlar reytingida 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka, 2030-yilga kelib esa birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutiladi [3]. Ushbu dastur orqali o'quvchilarning turli xil fanlardan savodxonliklari tekshiriladi. O'qish, matematika, tabiiy fanlardan hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qanchalik qo'llay bilishlari baholanadi.

Testlarning asosini maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi [4]. Xalqaro baholash dasturlarning har birini hozirgi kunda ta'lim tizimini standartlashtirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash xususiyatlarga egaligi tizimning ahamatli tomonidir.

Xalqaro baholash bu faqatgina yuqori sinflar emas balki eng avvalo boshlang'ich sinflarni baholashi ham ahamiyatlidir. PIRLS xalqaro baholash dasturi bu boshlang'ich sinf bolalarining matinni o'qib tushunish darajalarini baholash dasturidir. Bundan ko'zlangan maqsad global miqiyosda ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarni kuzatib boorish, tizim siyosatining ta'sirini kuzatib boorish, shu asosda ta'limni zaif nuqtalarini aniqlab shu asosda o'quv islohatlarini amalga oshirish, adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib boorish hamda PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish [5]. TIMSS xalqaro baholash dasturida esa asosan matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini xalqaro monitoring qilish va baholash ko'zda tutiladi. Bunda 4-8-sinf o'quvchilarini fanlardan egallagan bilimlari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari solishtiriladi. Bunda nafaqat bolalarning o'zlashtirish darajasi shuningdek ta'lim mazmuni, o'quv jaryonidagi ta'lim salohiyati, muassasa imkoniyatlari, o'qtuvchilarning salohiyati, bundan tashqari o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rganiladi.

TIMSS xalqaro tadqiqot usullariga quydagilar kiradi:

- Ijobiy test natijalari
- So'rovnomalar (o'qtuvchilar, o'quvchilar, ta'lim muassasi ma'muriyati, ta'lim sohasidagi mutaxassislar, tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun)
- Uslubiy ta'minot
- Dasturiy ta'minot (sinflar va o'quvchilarni tanlash, ma'lumotlarni kiritish uchun) [6].

Bu xalqaro baholash dasturidagi topshiriqlarni uchga bo'lsak bo'ladi. Dastlab **“Bilish jarayonida”** o'quvchilarning matematikadan sonlar, oddiy geometrik jismlar va ularni anglash, standart diagramma va grafiklardan ma'lumot olish va ularning ta'rifini takroran aytib bera olish bo'lsa tabiiy fanlarda esa oddiy hodisalarning, jarayonlarning tabiiy-ilmiy atamalari va o'lchov birliklari haqidagi bilim darajalarini ko'rsatib berishlari kerak.

Keyingi navbatda **“Qo'llash”** bu jarayonda test bajarish va uni hayotiy hodisalar bilan bog'lay olish, tabiiy-ilmiy masalalarni yecha olish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalari, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni tasvirlay olish ko'nikmalari nazarda tutiladi. **“Mulohaza yuritish”** topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi bu qism eng murakkab qism desa bo'ladi unda integratsiyalash va murakkab masalalarni fikr yuritib yecha olish va ularga to'g'ri tarif berish ko'nikmalari muhimdir.

XULOSA

Xalqaro ta'lim sifatini baholash tizimining O'zbekistonga olib keladigan xizmati nihoyatda ulkandir. Shu orqali ta'lim tizimidagi kamchiliklar, sustkashliklar va bir qancha muammlarni ko'ra bilishi va shu orqali yangi strategiya va maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi mumkin. Bu nafaqat davlat balki o'qtuvchilar oldiga ham ulkan ma'sulyat va bir qancha vazifalarni qo'yadi. Avvalo ta'lim sifatini oshirishdan oldin sohadagi muammolarni aniqlab so'ngra unga qarshi bir qancha vazifalar, maqsadlar qo'yiladi.

Shuningdek yangicha uslub ko'rilib yoki oldingilari zamonaviysiga almashtiriladi. Bundan ko'zlangan maqsad yuqori malakali o'qtuvchilarni yetishtirib shu asosida o'quvchilarni bilim va saviyalarini dunyo bozoridagi o'quvchilar bilim va ko'nikmalariga tenglashtirish va o'z o'rnida yuqori malakali kadrlarni yetishtirib berishdir. UNESCO (2023) Ta'kidlaganidek: Ta'lim sifatini baholashning asosiy maqsadi-ta'lim tizimini takomillashtirish va har bir o'quvchining potensialini to'liq rivojlantirishdir” [7] deb bejizga urg'u berilmagan har bir o'quvchi nafaqat ta'lim tizimining yuqori ekanligi butun bir jamiyat taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimining rivojlanishi bu jamiyat rivoji desak bo'ladi, buni esa doimo xalqaro baholash dasturlari orqali muntazam standartlashtirib kamchiliklarni bartaraf etib oldinga bir necha maqsad va vazifalarni qo'yib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Pedagogika Fanlar Ilmiy Tadqiqot Instituti- R.X. Djurayev, S.T.Turg'unov. Toshkent "Voriz-Nashriyoti"-2006
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son (<https://lex.uz/docs/-5234746?ONDATE=19.01.2021%2000>)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_o%CA%BBquvchilarni_baholash_dasturi
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/PIRLS>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/TIMSS>
7. <https://journalss.org/index.php/mod/article/view/17219/16558>